

## Namangan viloyat statistika boshqarmasi

### 2018 yil yanvar-iyul oylarida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


#### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **2633,4 mlrd.so'mni**, o'sish **9,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati **6,7 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **67,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **66,3 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2633,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 8,9 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 4,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 8,1 % ga o'sishi hisoblanadi.

#### 2018 yil yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2456,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,3 % ni tashkil etdi.

***2018 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2018 yil	2017 yil	2017 yilga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalanmagan), ming tonna	9,4	6,9	135,0
Paxta linti, ming tonna	1,9	1,6	114,9
Aroq – ming litr 100 % spirt	606,0	690,5	87,8
Vino, ming litr	756,9	603,7	125,4
Un, ming tonna	66,4	67,9	97,9
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	7,3	6,1	119,1



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 125,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8 % ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.



### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1779,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 6,7 % ga ko'paygan, jami sanoatdagi ulushi esa 67,6 % ni tashkil etdi.

### *2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari*




2018 yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi 719,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 106,2 %ga o'sdi.

Nooziq-ovqatlar va vino-arq mahsulotlari hajmi esa 1059,8 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 % ga o'sdi.

2017 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 40,6 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oyida 44,4 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga ortgani kuzatilmoqda.

*Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da*




2017 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 59,4 % dan 2018 yilning yanvar-iyul oyida 55,6 % bo'lib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamaygani kuzatilmoqda.



### *Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.*

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 49,9 % ulushini), Uchqo'rg'on (8,0 %), Namangan (8,0 %), To'raqo'rg'on (8,0 %), Uychi tumani (6,3 %), Pop (4,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### *2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da*



Shu bilan birga eng kam ulush Chortoq (1,4 %), Yangiqo'rg'on (1,4 %), Norin (2,5 %) , Mingbuloq (2,7 %) va Chust (2,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Namangan shahrida (2017 yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 111,5 % ga), Pop (113,3 % ga), va Mingbuloq (148,8 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

**2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)




### *Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.*

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,7 % ga ortdi va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 66,3 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Kosonsoy (98,6 %), Namangan (81,1 %) va Chust (81,1) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mingbuloq (25,0 %), Pop (32,5 %) va Uchqo'rg'on (40,7 %) tumanlarida kuzatildi.

### *2018 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da*






***Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.***


Bugungi kunda viloyatda 4200 dan oshiq sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2052 tasi Namangan shahrida, 318 tasi Chust, 281 tasi Uychi, 289 tasi Namangan, 232 tasi Kosonsoy, 244 tasi To'raqo'rg'on, 318 tasi Chortoq, 153 tasi Uchqo'rg'on, 148 tasi Yangiqo'rg'on, 150 tasi Pop, 134 tasi Norin va 87 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

***2018 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni***



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 558 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 67,0 % Namangan shahri, Chust, Norin, Uychi va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keladi.

**2018 yil 1 avgust yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

(0371) 230-84-80